

NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2024- yil yanvar-fevral oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyati korxonalarini tomonidan 3 114,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 117,2 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,7 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2024- yil yanvar-fevral oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatining 121,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati 172,4 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-fevral oylarida



2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2481,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,7 % ini tashkil etdi.




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,0 % ni (2023- yilning yanvar-fevral oylarida – 2,8 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 5,9 % (7,0 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 14,5 % (11,1 %) va quyi texnologiyalisi – 77,6 % (79,1 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-fevral oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,1 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 17,7 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,8 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 118,8 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,6 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2023-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,7 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-fevral oylarida



2024-yilning yanvar-fevral oylari davomida jami sanoatda 7,6 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 40,7 % ga kamaygan), 9,2 ming tonna paxta tolasi (16,2 % ko'paygan), 3,1 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (50,0 % ga kamaygan) hamda 11,4 ming tonna paxta chigiti (23,5 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	6,2	3,1	-3,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	12,8	7,6	-5,2
Paxta tolasi, ming tonna	7,9	9,2	1,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	1,0	2,8	1,8

2024- yil yanvar-fevral oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-fevral oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 102,7 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunida ham, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 14,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 15,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 107,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat hajmining 4,3 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 126,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 459,5 mlrd.so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 477,1 mlrd.so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 17,6 mlrd.so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-fevral oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 72,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 75,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2,8 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.

2023- yil

88,1 %

2024- yil

123,1 %

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 105,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 117,5 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 853,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 yil

105,4 %

2024- yil

117,5 %

Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,2 % ni, ya'ni jami 226,4 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,5 % ni tashkil etib, 358,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 132,5 mlrd. so'mga oshgan.

2023- yil

100,2 %

2024- yil


188,0 %

2024- yil yanvar-fevral oylarida


Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 57,4 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Namangan viloyati bo'yicha 41,7 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 2,5 mlrd. so'mni tashkil etib, jami sanoatning 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,4 mlrd. so'mga ko'payib, 2,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, yani 28,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 26,9 mlrd. so'mga ko'paygan va 55,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-fevral oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 591,9 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 19,0 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,8 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1094,4	922,2	-172,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	15,4	28,1	12,7

2024- yil yanvar-fevral oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,7 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd. so'm	13,1	19,9	6,8
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,0	9,1	7,1


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 6,8 mlrd. so'm yoki 51,9 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaliklarining qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 9,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-fevral oylarida

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 581,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 18,7 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-fevral)

